

TURK TILIDA KO'PLIK KATEGORIYASINING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI

Jaloliddinova Maftuna Najmiddin qizi

Oriental Universiteti Filologiyasi va tillarni o'qitish (turk tili)

maftunajaloliddinova719@gmail.com

Selma Ozan

Ilmiy rahbar: Tillar-2 kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada turk tilidagi ko'plik kategoriyasi hamda uning asosiy ifoda vositasi bo'lgan *-lar/-ler* qo'shimchasining ma'naviy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. An'anaviy qarashlarda bu qo'shimcha asosan miqdoriy ko'plikni bildirish bilan cheklangan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar uning nutq jarayonida yanada kengroq ma'nolarni ifodalashini ko'rsatadi. Xususan, tahlil davomida ushbu qo'shimchaning hurmat, mubolag'a, yaqinlik, taxmin, kinoya kabi turli qo'shimcha ma'no qatlamlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari turk tili grammatikasini chuqurroq anglash va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada to'plangan materiallar turkologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar va turk tili tadqiqotchilari uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar. Turk tili, ko'plik kategoriyasi, *-lar/-ler* qo'shimchasi, semantik xususiyatlar, pragmatik ma'no, hurmat va mubolag'a, turkologiya, nutq madaniyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности категории множественности в турецком языке и её основного средства выражения — аффикса *-lar/-ler*. Если в традиционных взглядах этот аффикс ограничивался в основном выражением количественного множества, то современные исследования показывают, что в процессе речи он выражает более широкие значения. В частности, в ходе анализа раскрываются различные смысловые пласты данного аффикса, такие как уважение, преувеличение, близость, предположение, ирония. Результаты исследования имеют важное значение для более глубокого понимания грамматики турецкого языка и развития культуры речи. Собранные в статье материалы могут служить источником для студентов, обучающихся по направлению тюркологии, и исследователей турецкого языка.

Ключевые слова. турецкий язык, категория множественности, аффикс *-lar/-ler*, семантические особенности, прагматическое значение, уважение и преувеличение, тюркология, культура речи

Abstract. This article examines the semantic characteristics of the category of plurality in the Turkish language and its primary means of expression, the suffix *-lar/-ler*. While traditional views limited this suffix mainly to expressing quantitative plurality, modern research shows that it expresses broader meanings in the speech process. In particular, the analysis reveals various semantic layers of this suffix, such as respect, exaggeration,

closeness, approximation, and irony. The research results are of significant importance for a deeper understanding of Turkish grammar and the development of speech culture. The materials collected in the article can serve as a resource for students in the field of Turkology and researchers of the Turkish language.

Keywords. *Turkish language, category of plurality, -lar/-ler suffix, semantic characteristics, pragmatic meaning, respect and exaggeration, Turkology, speech culture.*

Kirish. Til nafaqat fikr almashish vositasi, balki insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qarashlarini aks ettiruvchi murakkab tizimdir. Dunyodagi eng boy tillardan biri hisoblangan turk tilining grammatik qurilishi o'zining mantiqiyliigi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, turk tilidagi morfologik ko'rsatkichlar ko'p hollarda faqatgina bitta vazifa bilan cheklanib qolmay, gapning umumiy mazmuniga turli ma'no nozikliklarini yuklaydi. Shunday ko'p funksiyali grammatik birliklardan biri — ko'plik kategoriyasi va uning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan -lar/-ler qo'shimchasidir.

Odatda, ko'plik qo'shimchasi darsliklarda predmetning miqdorini ko'rsatuvchi vosita sifatida o'rgatiladi ammo mashhur turkolog Tahsin Banguog'lu o'zining "Türkçenin Grameri" asarida ta'kidlaganidek, ko'plik qo'shimchasi faqatgina miqdor bildirmay, balki gapga hurmat, mubolag'a va o'xshatish kabi turli uslubiy ma'nolarni ham yuklaydi (Banguoğlu T., 2015: 166). Bu holat tilshunoslikda "til tejamkorligi" (dil ekonomisi) deb ataladi: ya'ni kam vosita bilan kengroq ma'no ifodalash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi va maqolaning maqsadi — ushbu qo'shimchaning nutqdagi pragmatik vazifalarini ochib berishdir. Tadqiqot davomida Z. Korkmaz va M. Ergin kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ko'plik qo'shimchasining pragmatik imkoniyatlari misollar yordamida ko'rsatib beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolani yozish davomida deskriptiv-tahliliy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, mashhur turk olimlari va turkologlar — T. Banguoğlu, Z. Korkmaz va V. Hatipoğlularning nazariy qarashlari o'rganib chiqildi va ulardan iqtiboslar keltirildi. Turk tili grammatikasida alohida va muhim o'rin egallagan -lar/-ler ko'plik qo'shimchasining vazifalari, ma'nolari va qo'llanilish o'rinlari alohida guruhlariga ajratildi. Qo'shimchalarning turli nutqiy vaziyatlarda "til tejamkorligi" tamoyili asosida qanday ma'no o'zgarishlariga uchrashi misollar orqali tahlil qilindi va ko'rsatib o'tildi. Qo'shimchaning ma'nosi nafaqat grammatik qoidalar doirasida, balki gapning mazmuni va so'zlovchining maqsadidan kelib chiqqan holda (kontekst ichida) o'rganildi. Ko'plik tushunchasining nafaqat turk tilida, balki hind-yevropa va arab tillari bilan qiyosiy jihatlari nazariy jihatdan ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tildagi ko'plik kategoriyasi shunchaki "ko'plik yasash" degan ma'no bilan cheklanib qolmaydi. Ko'plik tushunchasi tillarda son kategoriyasi (nem. *numeros*, fr. *nombre*, ingl. *number*) doirasida ko'rib chiqiladi. Ko'plik tushunchasi ot turkumiga mansub so'zlar va fe'llar bilan bog'liqdir. Bu tushuncha bizning

tilimizda, hind-yevropa tillarida va arab tilida maxsus qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Otlarda va otlashgan so'zlarda ifodalangan tushuncha; fe'llarda esa ish, holat yoki harakatni bajaruvchi/bajaradigan subyektning bir nechta ekanini bildiradi.

Ko'plik tushunchasi haqida ayrim grammatika terminlari lug'atlarimizda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

“Otlar va olmoshlarda bir turdagi bir nechta predmetni ifodalash uchun; fe'llarda esa fe'l bildirgan ish-harakatning bajaruvchisi ko'plik ekanini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan maxsus qo'shimchalar: ağaç+lar, çiçek+ler, oda+lar, beyit+ler, okul+umuz, bahçe+ler+imiz, çocuk+lar+ımız, biz+ler, on+lar, anlattı-k, anladı-nız, geliyor-uz, gidecek-ler va boshqalar.” (Korkmaz Z., 1992:46).

Ko'plik — maxsus qo'shimchalar yoki so'zlar orqali bir nechta predmetni bildirish shaklidir:

Evler, elmalar, ordular, evimiz, evlerimiz, geldiler, geldik, geliyoruz, gelelim, biz, onlar va boshqalar (Hatipoğlu V., 1978: 36).

Odatda turk tilida bu qo'shimchalar "Çoğul Ekleri" (Ko'plik qo'shimchalari) deb ataladi.

Turk tilidagi "Büyük Ünlü Uyumu" (Katta unli moslashuvi) qoidasiga ko'ra:

- Agar so'zning oxirgi bo'g'inida qalin unlilar (a, ı, o, u) bo'lsa: -lar ishlatiladi.
- Agar so'zning oxirgi bo'g'inida ingichka unlilar (e, i, ö, ü) bo'lsa: -ler ishlatiladi.

Misollar:

- Kitap → Kitaplar
- Kedi (mushuk) → Kediler

Bu qo'shimcha faqat "ko'plik" ma'nosida emas, balki boshqa ma'nolarda ham kelishi mumkin ulardan:

1.Noaniq to'p (guruh) ma'nosi

Agar otning ko'pligi noaniq ma'noda bo'lsa, u umumiy bir to'p yoki tabiat hodisasini bildiradi. Bunday so'zlar gapda ko'pincha birlikdagi kesim bilan keladi:

• Misollar: insanlar (insonlar), çocuklar (bolalar), dağlar (tog'lar), sular (suvlar), yıllar (yillar).

- Havalar soğudu (Kunlar sovidi).
- Yemekler yendi (Ovqatlar yeyildi).[1.1]

2.Oila, sulola va familiya nomlari

Ushbu qo'shimcha kishi ismlariga qo'shib, oila yoki nasl-nasabni bildiradi:

- Oila/Familiya: Ahmetler (Ahmetlar oilasi), Doğanlar, Topaloğulları.
- Firma nomlari: Koçlarda bulursun (Koçlar firmasidan topasan).
- Qabila va millat nomlari: Avşarlar, Oğuzlar, Türkler, İtalyanlar.
- Diniy yoki g'oyaviy guruhlar: Ortodokslar, Aleviler, Atatürkçüler.[1.2]

3. Va shunga o'xshashlar" hamda Bo'rttirish

Taniqli shaxslar ismiga qo'shib, "o'shanga o'xshash buyuk insonlar" ma'nosini yoki joy nomlariga qo'shib mubolag'ani bildiradi:

- Mithat Paşalar, Namık Kemaller... (Midhat Poshshoga o'xshashlar).

• Londralarda, Parislerde... (Londonu Parijlarda — bo'rttirish).[1.3]

4. Joy nomlari (Toponimika)

Turkiyadagi ko'plab joy nomlari tarkibida bu qo'shimcha bor:

• Çifteler, Pasinler, Aydınlar.

• Tizma tog'lar va orollar: Toroslar (Toros tog'lari), Alpler (Alp tog'lari), Adalar (Orollar).[1.4]

5. Ilmiy terminlar yasashda qo'llanilishi

1.-ler: Mantarlar (Qo'ziqorinlar turkumi), Balıklar (Baliqlar), Yumuşakçalar (Yumshoq tanlilar).

2.-liler: Palamutlular (Eman turkumi), Memeliler (Sut emizuvchilar).

3.-giller: Inson oilasini bildirishdan tashqari, o'simlik va hayvonlar oilasini bildiradi:

• Buğdaygiller (Bug'doydoshlar).

• Tavukgiller (Tovug'simonlar).

• Kedigiller (Mushuksimonlar).

Xulosa.

Maqolada ko'rib chiqilgan misollar va nazariy ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, turk tilidagi ko'plik kategoriyasi shunchaki "son" tushunchasidan ancha kengroq ma'noga ega. Biz odatda -lar/-ler qo'shimchasini faqat narsa-buyumlarning miqdorini oshirish uchun ishlatamiz, deb o'ylaymiz, lekin aslida bu qo'shimcha tilning eng boy ma'no beruvchi vositalaridan biri ekan.

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihatlar shundan iborat:

1. Ko'p ma'nolilik: Ushbu qo'shimcha vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Masalan, hurmat ma'nosida ishlatilganda nutqni madaniyatliroq ko'rsatsa, kinoya ma'nosida so'zlovchining ichki emotsiyasini ochib beradi. Bu esa turk tilining naqadar moslashuvchanligini ko'rsatadi.

2. Nutqiy vaziyat (Pragmatika): -lar/-ler qo'shimchasi so'zlovchiga o'z munosabatini qisqa yo'l bilan tushuntirish imkonini beradi. Bitta qo'shimcha bilan ham vaqtni umumlashtirish, ham mubolag'a qilish, ham hurmat ko'rsatish mumkinligi bu tilning o'ziga xos "tejamkorlik" usulidir.

3. Filologik xulosa: Turk tilini o'rganayotgan mutaxassis uchun ko'plik kategoriyasining bu kabi semantik qirralarini bilish juda muhim. Bu shunchaki grammatika emas, balki tilning jonli muloqotdagi o'rni va xalqning so'zlashish madaniyati bilan bog'liq bo'lgan hodisadir.

Xulosa sifatida, turk tilida ko'plik kategoriyasi faqat grammatik qoidalar majmuasi bo'lib qolmay, balki fikrni aniq va ta'sirli yetkazib berishda asosiy uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Banguoğlu, T. (2015). Türkçenin Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

2. Korkmaz, Z. (2014). Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi). Ankara: TDK Yayınları.

3. Hatipoğlu, V. (1978). Türkçenin Ekleri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

TA'LİM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 2. No 8,

4.Ölker, G. (2011). Çokluk Ekinin (-lar/ -ler) Anlam ve İşlevleri Üzerine Bir Sınıflandırma Denemesi. *Turkish Studies*, 6(3), 1011-1033.